

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI VA
SAMARALI MEXANIZMLARI**

Sayfullayeva Gulsanam Zafarovna

Buxoro davlat universiteti "Yurisprudensiya" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Maqolada korrupsiya hodisasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, uning davlat boshqaruvidagi salbiy ta'siri, O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari tahlil qilingan. Shuningdek, korrupsiyaning oldini olishning huquqiy, tashkiliy va ma'naviy jihatlari yoritilgan hamda kalit so'zlar yordamida korrupsiyaga qarshi kurashuvchilarning huquqiy imkoniyatlari va muammolar chuqur o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi, shaffoflik, davlat xizmati, javobgarlik, huquqiy islohotlar, nepotizm, profilaktika, nazorat mexanizmi.*

Korrupsiya nafaqat huquqbuzarlik, balki jamiyat ishonchini yemiruvchi eng xavfli ijtimoiy illatlardan biridir. U davlat boshqaruvi, iqtisodiy taraqqiyot va fuqarolarning huquqlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Korrupsiya nafaqat mansab vakolatlarining suiiste'moli, balki fuqarolar bilan davlat organlari o'rtasidagi ishonchning pasayishi, iqtisodiy faoliyatning samarasizlashuvi, investitsiyalarning kamayishi kabi keng ko'lamlil salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shu bois, xususiyl sektorda ham, davlat xizmatida ham korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy va institutsional mezonlari bilan mustahkamlanishi muhim va bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish barcha demokratik davlatlarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

"Korrupsiya" (lotincha –corruption atamasi "buzilish", "sotilish" degan ma'nolarni bildiradi. Huquqiy jihatdan korrupsiya shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiyl manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida g'ayriqonuniyl foydalanish hisoblanadi. U pora olish, pora berish, mansab vakolatini suyiste'mol qilish, manfaatlar to'qnashuvi va nepotizm shakllarida namoyon bo'ladi. Ma'lumot o'rnida aytish joizki, nepotizm mansab yoki lavozimdagi shaxsning o'z qarindoshlarini yoki yaqinlarini asossiz tarzda qo'llab-quvvatlashi, ularga imtiyoz, lavozim yoki foyda berish holatidir. Korrupsiya davlat organlariga bo'lgan ishonchni kamaytiradi, adolat va raqobat tamoyillarini buzadi, iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi. Shu bois ham unga qarshi kurashish har bir davlatning eng muhim vazifasidir.

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi asosiy huquqiy poydevor-O'RQ-419-son 2017-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni bo'lib, bu hujjat orqali davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, vakolatli organlar, huquqbuzarliklarni aniqlash va nazorat qilish mexanizmlari belgilangan. Uning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: korrupsiyaning tushunchasi, huquqbuzarlik shakllari va manfaatlar to'qnashuvi kontseptsiyasini aniqlash; davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari: huquqiy ongni oshirish, jamiyatda korrupsiyaga toqat qilmaslik muhitini

yaratish, davlat va jamiyat hayotida ochiqlikni ta'minlash; vakolatli organlar tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining ishtiroki.

Shundan keyin ko'plab boshqa qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritildi. Masalan, "Davlat xizmatlari to'g'risida"gi qonunda davlat xizmatchilarining faoliyati, deklaratsiya majburiyatlari va cheklovlar belgilandi. Shuningdek, davlat xaridlari, ochiqlik va fuqarolik nazorati yo'nalishlarida ham me'yoriy hujjatlar mustahkamlandi. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun asosida: korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi; davlat xizmatchilarining axloq kodeksi joriy etildi va davlat organlari faoliyatida ochiqlik hamda shaffoflik tamoyillari kuchaytirildi; manfaatlar to'qnashuvini oldini olish mexanizmlari ishlab chiqildi. So'nggi yillarda esa normativ hujjatlar takomillashtirilishi, elektron hukumat tizimining kengaytirilishi, "E-anticorruption" platformasi ishga tushirilishi va "Halol mehnat-halol daromad" tamoyilining targ'ib etilishi korrupsiyaga qarshi kurashda yangi bosqichni boshlab berdi.

Korrupsiyani oldini olish har qanday davlat uchun murakkab jarayon bo'lib, nafaqat qonunlar, balki ijtimoiy ong, boshqaruv tizimi va iqtisodiy barqarorlik bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda korrupsiyani oldini olishda eng katta muammo, inson omili va institutsional sustkashlikdir. Yuqorida ta'kidlagan bir qancha qonunlarimiz mavjud bo'lsa-da, uni amalda to'liq tatbiq etish qiyinchiliklari saqlanib kelmoqda, ya'ni nazoratning yetarli darajada emasligi; OAV ishtirokida nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamon dolzarbligi; ayrim davlat idoralarida ichki nazorat mexanizmlari sust ishlashi; davlat xizmatchilari orasida axloqiy-etik madaniyat yetarli darajada shakllanmaganligi; fuqarolar korrupsiya holatlari haqida xabar berishdan qo'rqishi yoki ishonch tizimi pastligi, ayrim holatlarda korrupsion jinoyatlar uchun jazolar yengil qo'llanilayotganligi asosiy muammolardan hisoblanmoqda. Qonun hujjatlaridagi normativ hujjatlar va amaliyot o'rtasida tafovutlar uchrab turadi, ya'ni huquqiy tartibga solish, bor-yo'q bo'lsa ham, madaniyat va tafakkur jihatdan "korrupsiyasiz jamiyat" muhitini shakllantirish ham muhim. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun huquqiy, ma'naviy, axborot va iqtisodiy choralarni birgalikda qo'llash zarur.

Korrupsiyani faqat jazolash orqali emas, balki uni ildizidan yo'qotish, ya'ni profilaktika choralari kuchaytirish orqali yengish mumkin. Buning uchun quyidagi yo'nalishlar muhim:

1. Huquqiy tarbiya va ma'naviy tarbiyani kuchaytirish-yoshlar orasida halollik, vijdon va adolat qadriyatlarini targ'ib qilish;
2. Davlat xizmatida ochiqlikni ta'minlash-tanlov asosida lavozimga tayinlash, mol-mulk deklaratsiyasini joriy etish;
3. Axborot texnologiyalaridan foydalanish, elektron davlat xizmatlari orqali inson omilini kamaytirish;
4. Fuqarolik nazoratini kuchaytirish-OAV, jamoatchilik va NNT(nodavlat notijorat tashkilot)lar ishtirokida monitoring mexanizmlarini yo'lga qo'yish;
5. Fuqarolik va tadbirkorlik sub'yektlarini korrupsiyaga qarshi ishtirokga jalb qilish, ya'ni ochiq ma'lumotlar platformalari, anonim murojaatlar, himoyalash mexanizmlari hisoblanadi.



Kelajakda korrupsiyaning oldini olish uchun takliflar ham yetarlicha. Bulardan bir nechtasini sanab o'tadigan bo'lsak, davlat xizmatchilari uchun etik xulq-atvor bo'yicha doimiy treninglar o'tkazish, OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali adolat va mas'uliyat qadriyatlarini targ'ib qilish, har bir idora o'z faoliyatida korrupsiyaga moyil jarayonlarni aniqlab, ularni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rish, qonunchilikni yanada mustahkamlash, huquqiy ong va madaniyatni oshirish: ta'lim muassasalarida korrupsiya bilan bog'liq modullarni joriy etish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, xalqaro tajriba bilan solishtirish, boshqa davlatlardagi shaffof boshqaruv va antikorrupsiya strategiyalarini o'zlashtirish va boshqalar.

O'zbekiston BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (O'RQ-158-son 07.07.2008) hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tavsiyalariga muvofiq milliy dasturlarni amalga oshirmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani kamaytirish uchun shaffof boshqaruv, kuchli fuqarolik jamiyati va mustaqil ommaviy axborot vositalari zarur.

Korrupsiyasiz jamiyat bu har bir fuqaroning halollikka sodiqligidan boshlanadi. Korrupsiyani kamaytirishning eng samarali yo'li, inson omilini o'zgartirish, ya'ni har bir fuqaro qalbida halollik, adolat va mas'uliyat tuyg'usini kuchaytirishdir. Faqat shundagina biz korrupsiyasiz, shaffof va ishonchli jamiyat sari dadil qadam tashlay olamiz. Chunki korrupsiyaga qarshi kurash faqat davlat organlarining emas, balki butun jamiyatning umumiy burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni-2017-yil 3-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son Farmoni, "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. Jo'rayev M. Huquqiy davlat va korrupsiyaga qarshi kurash.-Toshkent:Adolat, 2022.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hisobotlari.-Toshkent, 2023.
5. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi. -Nyu-York,2023
6. Xudoyqulov A. Davlat xizmati va korrupsiyani oldini olish mexanizmlari.-Toshkent: IIV akademiyasi, 2021.
7. Karimova D. O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi siyosati: muammo va yechimlar.-Toshkent:TDYUI nashriyoti, 2024.